

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISH

Denov tumanidagi 19-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Xudoyqulova Sevara Safaraliyevna

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativlikni takomillashtirish to'g'risida fikr mulohazalar bayon etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlari va hayotga tatbiq eta olishlarida ulardagi kreativ fikrlash motivatsiyalarining o'rni va ahamiyati haqida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, metodika, tafakkur, kreativlik, belgi, mashq, fikrlash, ijodkorlik, fikrlash, erkinlik.

Аннотация: В данной статье представлены мнения по вопросам повышения творческих способностей учащихся младших классов. Подчеркнута роль и значение мотивации творческого мышления учащихся младших классов в приобретении необходимых знаний, умений и навыков и умения применять их в жизни.

Ключевые слова: образование, методика, мышление, творчество, знак, упражнение, мышление, творчество, мышление, свобода.

Abstract: This article presents opinions on improving creativity among primary school students. The role and importance of motivation of creative thinking in elementary school students in acquiring the necessary knowledge, skills and abilities and being able to apply them to life has been explained.

Key words: education, methodology, thinking, creativity, sign, exercise, thinking, creativity, thinking, freedom.

Respublikamizda ta'lim sohasida bir qancha islohotlar amalga oshirilayapti. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda barchamiz uchun eng muhim vazifaga aylanayotgan bir masala borki, biz amalga oshirayotgan barcha pedagoglar.org

islohotlarning natijasi aynan shu masalani qanday hal etishimizga bog'liq. U ham bo'lsa, hayotimiz mazmuni, ertangi kunimiz egasi bo'lgan yosh avlod, farzandlarimiz tarbiyasidir" [1,330].

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirish usullari va vositalariga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri o'qituvchi-o'quvchilar hamkorligi ekanligiga alohida e'tibor qaratildi. Ma'lumki, ta'lim jarayoni ikki yoqlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning teng munosabatlaridan tashkil topadi. Bu jarayonga rahbarlik qiluvchi o'qituvchi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, ta'lim maqsadlarining to'g'ri amalga oshirilishi va ta'lim natijalari uchun javobgar shaxs hisoblanadi. Ammo bu, ta'lim jarayoni o'qituvchining to'liq hukmronligi ostida amalga oshadigan jarayon, degan noto'g'ri fikrning tug'ilishiga asos bo'la olmaydi. Hozirgi davr talabi ham kimnidir bo'ysundirish orqali emas, balki hamkorlik munosabati yordamida ijobiy natijaga erishishdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyatining shakllanishi fan asoslarini o'zlashtirishga oid mexanizmga bo'lib qolmasdan, balki shaxsning umumiy ijtimoiy-madaniy qobiliyatlarini tarkib toptirishga ham qaratilishini unutmaslik lozim [4, 506].

Pedagogik kreativlikni faqatgina yangilikka, tajribalar o'tkazishga intilish deb tushunmaslik kerak. Bu intilish sog'lom fikrning rasmiyatchilik ustidan g'alabasini ham ifoda etadi. Demokratiya, oshkoralik bo'lmagan joyda, ma'muriyatchilik va o'qituvchining irodasi bilan dars jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatiga rahna solinsa ijodiy hamkorlik barham topadi. Boshlang'ich sinf darslarida o'quvchilarning kreativ qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan topshiriqlar ustida ishlash alohida o'rin tutadi. O'quvchi o'zi uchun qulay sharoitda hayotiy va o'quv tajribasiga tayanib og'zaki yoki yozma nutqi orqali fikrlash faoliyatini amalga oshiradi. Unda har bir fanning o'zi uchun noma'lum qirralari xususida o'qituvchi bilan faol hamkorlik qilish uchun ruhiy tayyorgarlik paydo bo'ladi. U mavzu yuzasidan berilgan savollarga tegishli javob qaytarish uchun mustaqil ijodiy izlanishlarga harakat qiladi. O'qituvchi bunday hamkorlik jarayonida o'quvchilarning kreativligini o'stirish bilan birga diagnostik

vazifani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarning qobiliyati, qiziqish doirasini aniqlaydi, kreativ iqtidorini chamalaydi. Kreativlikni rivojlantiruvchi topshiriqlar ustida ishlash jarayonida bu g'oyat muhimdir. Boshlang'ich ta'lim – bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda [3,15].

O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan. O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas [3, 16].

Boshlang'ich ta'limni ijodiy tashkil etishning nazariy asoslari, ta'lim jarayonida shaxsning ijodiy fikrlash imkoniyatlarini kengaytirish, bevosita shaxsda kreativlik qobiliyatini shakllantirish bo'yicha turli usul, metodlari masalalari respublikamiz olimlaridan B.Adizov, N.Dilova, R.Ibragimov, G.Ibragimova, G.Najmiddinova, R.Nurjanova, R.G.Safarova, N.Tosheva, X.J.Xudayqulov, F. Ehsonovalar; shuningdek, ijodkorlik va ijodiy fikrlash psixologiyasi G.Davletshin, E.G'oziev, Z.Nishonovalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan V.ye.Andreev, D.B.Bogoyavlenskaya, G.M.Mardonova, M.V.Golubeva, O.P.Tarasova, O.V.Sorokin, V.V.Serikovlar tomonidan bo'lajak o'qituvchilar

tarkibini aniqlash, bo'lajak pedagoglarni ma'naviy-axloqiy shakllantirish, ta'lim jarayonida shaxs rivojlanishining pedagogik tamoyillari, shaxsning ijodiy qobiliyatlari va kreativ faoliyatlarini rivojlantirish muammolari o'rganilgan [6, 6].

Kreativ faoliyat shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ijodiy tafakkurning shakllanishi bevosita hayot tajribasi, bilim darajasi, shaxsning turmush tarzi va shaxslararo munosabatlariga bog'liq. Chunki, kreativ faoliyat aslida, turli xil bilimlar, tajribalar va ko'nikmalar kompleksining natijasidir. Pedagogik kreativlik-pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim-tarbiyaviy jarayonn samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining kreativ faoliyati – bu o'qituvchining ijodkorligi, u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga kreativ yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat “Pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda [2,56].

Boshlang'ich ta'lim - bu har bir bolaning hayotida chuqur iz qoldiruvchi ta'lim turidan biri bo'lib, ta'limning bu bosqichida pedagog o'qituvchilarga katta mas'uliyat yuklatiladi. Ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi hali maxsus o'rganishni talab etmoqda. O'quvchilar o'z-o'zidan kreativ bo'lib qolmaydi. Uning kreativ qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. O'qituvchilar o'quvchilar bilan hamkorlikda ish yuritib, ularning har bir fikrini inobatga olishi va buni o'quvchiga sezdirishi kabi muhim vazifalarni bajarish orqali o'quvchilarni o'zgacha yondashuvli ya'ni kreativ bo'lishlariga erishishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilarga muammoli masala va vaziyatlarni berib, o'quvchining masala yechimini topishga ijodiy yondashishi undagi hissiy irodaviy sifatlarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu o'quvchilarni o'z ustida ishlash, mustaqil

o'qib o'rganishiga imkoniyat, ichki ehtiyojning oshishiga turtki bo'ladi. «Kreativlik» tushunchasi «ijod» tushunchasi bilan bog'liq. Biroq, «kreativlik» tushunchasi tegishli lug'atlarda munosib differentsiyasini topmagan va ijod psixologiyasida yetarlicha aniqlanmagan [5, 68].

O'nlab ilmiy ishlarda kreativlikning u yoki bu qirralariga turlicha yondashib, har xil darajada qamrab olinayotganligiga qaramasdan, hozirgacha na muammoning o'ziga va na unga taalluqli bo'lgan amaliy savollarga nisbatan yagona to'xtam mavjud emas. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiq eta olish qobiliyati deb oldik. Ya'ni biz tadqiqotimizda ta'lim sohasiga oid kreativlikni ya'ni boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish metodikasini ko'rib chiqamiz. O'qituvchi kreativligi ustuvor tasnifga ega. Yuqoridagi pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlari bilan tanishar ekanmiz, ularning barchasini umumlashtirgan holda, biz quyidagi fikrlarni e'tirof etmoqchimiz:

1. Kreativlik - o'qituvchilarni novatorlikka undovchi pedagogik kategoriya.
2. Kreativlik - o'qituvchining kasbiy va shaxsiy sifatining integratsiyasi.

Chunki tabiatan qiziquvchan, intiluvchan bo'lmas ekan, o'qituvchi hech qachon kreativlikni namoyon eta olmaydi.

3. Kreativlik - o'qituvchilarda o'z-o'zidan paydo bo'ladigan sifat emas, u o'qituvchining yangiliklarga intilishi, yangiliklarni o'zlashtirishi va o'zining pedagogik faoliyatida qo'llay olishda duch keladigan qiyinchiliklarni yenga olishi, yangiliklarni o'z faoliyatida faol, ijodkorona foydalana olish va o'z mualliflik g'oyalariga, yechimlarni (evristik) topa olishi bilan bog'liq.

4. O'qituvchi kreativligining shakllanishi «ehtiyojlar, yo'nalishlar va «Men konsepsiya»laridan kelib chiqadi. O'qituvchi kreativ faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo'lishi davr talabi. O'qituvchi kreativlik

faoliyati, pedagogik faoliyatning barcha turlarida nomoyon bo'lishi davr talabi. O'qituvchi kreativlik faoliyati, avvalo, pedagogik mahorat bilan bog'liq degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda kreativlik va ijodkorlik aynan bir xil ma'no anglatmaydi degan fikrga keldik. Chunki, ijodkorlik deganda barchaning ko'z o'ngiga ma'lum bir narsani ixtirosi, chizmasi va hokazolar kelishi mumkin. Lekin biz tadqiqotimizda kreativlikni, dars jarayonida berilgan vazifaga hech kimnikiga o'xshamas yo'l topish va uni ilmiy asoslay olish, yangicha fikrlash, uni tadbiiq eta olish qobiliyati deb oldik. Kreativlik ijodkorlikka nisbatan kengroq tushuncha degan fikrga keldik.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017 yil, 488 bet.
2. Muxtarova, L. A. Use of multimedia technologies in the educational process. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 2021-yil 4-son . 1781-1785-b.
3. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // *AJMR:Asian Journal of Multidimensional Research Journal*. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).
4. Gulnora Abduraxmonovna *ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 4 | ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723* 2021-y 4-son 1520-b.
5. Tojiyev M., Alimov A.Ya., Quchqarov D.U. Pedagogik texnologiya - uning ta'lim jarayoniga qo'llash. - T .: "Tafakkur", 2010. 3-bob. 147 b.
6. NE'MATOV BO'RITOSH. "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish" diss. Avtoreferati. Termiz davlat universiteti nashr-matbaa markazida chop etilgan. 2023 –yil. 51 –b.